



QISHLOQ XO‘JALIGIDA IQTISODIY MUNOSABATLARNING ERKINLASHTIRILISHI DOLZARB YO‘NALISHLARI

Xakimova Go‘zal Akbar qizi

Namangan muhandislik-qurilish instituti talabasi

Annotatsiya: maqolada qishloq xo‘jaligida iqtisodiy munosabatlar erkinlashtirilishining yo‘nalishlari oziq-ovqat xavfsizligiga erishish omili sifatida ilmiy tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi, innovatsiyalar, tejamkorlik, samaradorlik, aholi bandligi, tomorqa xo‘jaligi, eksport.

Аннотация: в статье научно проанализированы направления либерализации экономических отношений в сельском хозяйстве в качестве фактора достижения продовольственной безопасности.

Ключевые слова: сельское хозяйство, продовольственная безопасность, бережливость, эффективность, занятость населения, приусадебное хозяйство, экспорт.

Abstract: in the article, the directions of liberalization of economic relations in agriculture as a factor of achieving food security are scientifically researched.

Key words: agriculture, food security, innovation, economy, efficiency, employment, household, export.



Hozirgi paytda jahon xo'jaligida kuzatilayotgan muammolar qishloq xo'jaligida iqtisodiy jarayonlar amalga oshirilishi bilan bog'liq holda namoyon bo'lmoqda. O'zbekistonda qishloq xo'jaligining jadal rivojlanishini ta'minlash uchun keng ko'lamli choralar ko'rilmogda, agrar sektor tegishli moliyaviy manbalar bilan ta'minlanmogda va agrar rivojlanishning moliyaviy quvvatlanishi izchil davom ettirilmogda. O'zbekistonda olib borilayotgan agrar islohotlar sohaning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, qishloq aholisi bandligini va farovonligini oshirishni ta'minlashga qaratilgan. Shuning uchun “O'zbekiston - 2030 strategiyasiga binoan amalga oshirilayotgan agrar sohadagi bozor islohotlari uzoq vaqtga mo'ljallangan fundamental maqsadlarni o'rta qo'yish bilan bir qatorda, bu maqsadlarga erishish vositalari, yo'llarini belgilashni ham o'z ichiga olmogda. Islohotlar iqtisodiy erkinliklar kengaytirilishi bilan birgalikda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini zamonaviy texnologiyalar negiziga ko'chirish va samaradorligini to'xtovsiz oshirib borishga qaratilmogda.

Qishloq xo'jaligi sohasida erkin bozor munosabatlari amal qilishi doirasini izchil ravishda kengaytirib borilishi soha faoliyatini ustuvor ravishda mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadlariga qaratilishini ta'minlamogda. Bu esa hozirgi sharoitlarda milliy iqtisodiyotning mustaqil harakatlana olishining turli jihatlar bilan hamohangdir (iqtisodiy xavfsizlik, moliyaviy xavfsizlik, oziq-ovqat xavfsizligi, energetik xavfsizlik, dori-darmonlar va tibbiyot uskunalar bilan ta'minlanganlik, ish joylarini saqlab qolish va boshqalar). Global inqiroz sharoitlarida tashqi manbalar (moddiy, moliyaviy, ilmiy va boshqalar) ahamiyatini inkor etmaslik lozim bo'lsada, har bir mamlakat o'z muammolarini avvalo o'z kuchlari bilan hal qilishiga to'g'ri kelayotganligi ham ko'rinib turibdi.

Bozor munosabatlari sharoitlarida iqtisodiy sub'ektlar mustaqil harakat qilsalarda, davlat tomonidan moliyaviy quvvatlashning ahamiyati o'ta kuchli ahamiyat kasb etmogda. O'zbekistonda davlatning inqirozga qarshi choralari xo'jalik yuritish sub'ektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini bevosita va bilvosita qo'llab-quvvatlashga qaratilmogda. Bu soliq yukini



kamaytirish, bank kreditlashi taomillarining soddalashtirilishi va shartlarining engillashtirilishi, bank kreditlashi resurs bazasining kengaytirilishi kabilardir.

Hozirgi paytda oziq-ovqat eksportining roli ortdi. Shuningdek, faqat oziq-ovqat mahsulotlarining ozuqa-energetik xossalariagina emas, balki ularning inson immunitetiga ta'siri jihatidan qadrliligi e'tiborga olinmoqda. Bu omillar meva-sabzavotlar eksporti uchun yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda, ishlab chiqaruvchilarga katta bozorlarga yo'l ochilmoqda. Eksportning yangi istiqbolli yo'nalishlari rivojlanmoqda. Masalan, 2020 yilning 9 oyida mamlakatimizdan 8720 tonna hajmidagi 9365 ming AQSh dollari qiymatida konservalangan meva-sabzavotlar eksport qilindi. Bu 2019 yilning mos davriga nisbatan 3607,4 tonna ko'p edi. 2022 va 2023 yillarda qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari eksporti har yili 1 mlrd. dollardan ortiqroqni tashkil etmoqda va barqaror o'sib borish tendentsiyasiga ega. Eksport geografiyasi va assortimenti kengaymoqda.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi rivojlanishi imkoniyatlarini uning an'anaviy tarmoqlaridan biri bo'lgan bog'dorchilik misolida ham ko'rish mumkin. Aholi farovonligini va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda meva va uzum etishtirish alohida o'rin tutadi. O'zbekistonda bog'dorchilikni rivojlantirish uchun mavjud shart-sharoitlar tarmoq mahsulotini mamlakat ichki ehtiyojlarini qondirish uchun etarli bo'ladigan miqdorlardan ancha ko'p ishlab chiqarishga imkon beradi. Shuningdek, eksportga yo'naltiriladigan mahsulotning yuqori raqobatdoshligiga ham erishilishi mumkin. Chunki yurtimizning tabiiy-iqlim sharoitlari:

- a) vegetatsion davr etarli darajada uzoq davom etadi;
- b) samarali harorat summasi etarli darajada katta (tuproq o'rtacha sutkalik harorati +10 dan yuqori bo'ladigan kunlar);
- v) er resurslari va tuproqning tabiiy unumdorligi;
- g) quyosh tabiiy radiatsiyasi foni;
- d) tabiiy yog'ingarchilik miqdori;



e) qishki sovuq tushishi oʻrtacha sanasi;

j) suv resurslari mahsulotning yuqori ozuqaviy qadr-qimmatga ega boʻlishiga koʻmaklashadi. Bogʻdorchilikning mehnat salohiyati esa:

a) mehnatga layoqatli aholi soni;

b) ish kuchining umumiy bilim darajasi va malakasi;

v) meva, sabzovot va uzum etishtirish bogʻdorchiliksidagi mehnatga nisbatan hurmat bilan qarashning tarixan shakllangan milliy anʼanalari;

g) bogʻdorchilik uchun zamonaviy texnologiyalarni qoʻllashga qodir kadrlarni tayyorlash imkoniyatlari (kasb-hunar taʼlimi tizimi) kabi omillar asosida shakllanmoqda.

Bogʻdorchilik rivojlanishiga koʻmaklashuvchi iqtisodiy-tashkiliy shart-sharoitlar:

a) uy xoʻjaliklarida meva va uzum etishtirish anʼanalari va agrotexnika madaniyati va koʻnikmalari saqlanib kelayotganligi;

b) bogʻdorchilikka, meva-sabzovot va uzum etishtirishga ixtisoslashgan fermer xoʻjaliklari tashkil etilganligi; v) faoliyat olib borayotgan dehqon xoʻjaliklarining koʻproq darajada meva va uzum etishtirishga yoʻnalganligi;

g) bogʻdorchilikda agrosanoat integratsiyasi jarayonlari kuzatilayotganligi(koʻplab fermer xoʻjaliklari oʻz mahsulotlarini oʻzlarida qayta ishlashni yoʻlga qoʻymoqdalar);

d) bogʻdorchilikga yangi texnologiyalar joriy etilishida kuzatilayotgan ijobiy tendentsiyalar;

e) tijorat banklari tomonidan bogʻdorchilikni kreditlash hajmlari jadal ortib borayotganligi;

j) bogʻdorchilik rivojlanishini ragʻbatlantiruvchi soliq tizimi; z) bogʻdorchilik ishlab chiqarish infratuzilmasinig davlat tomonidan moliyalanishi;

i) bogʻdorchilik mahsulotini sotishga xizmat qiluvchi bozor infratuzilmasi;



k) bog'dorchilik mahsulotiga ichki talabning va mamlakatdan tashqarida talabning mavjudligi;

l) bog'dorchilik mahsuloti tannarxi va iste'mol xususiyatlari bo'yicha raqobatbardosh ekanligi bilan xarakterlanmoqda.

Shuning uchun O'zbekiston Respublikasida 2030 yilga qadar davrda qishloq xo'jaligi rivojlantirishning kontsepsiyasi sohaning erkinlashtirilishi va oziq-ovqat yo'nalganligi kuchaytirilishini nazarda tutadi. Mamlakatimizda 2020 yilda meva-sabzavot tarmog'ida agrosanoat integratsiyasi jarayonlarini jadallashtirish uchun 86 ta klaster va 125 ta kooperativlar tashkil etildi. Ularning faoliyati ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardosh va tashqi bozorlarda xaridorgir oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishdan moddiy manfaatdorligini kuchaytirishga xizmat qilishi lozim. Klasterlar va kooperativlar mahsulotni sotish bilan kifoyalanib qolmasdan, uni saqlash va qayta ishlashni ham tashkil etishlari lozim. Natijada qo'shilgan qiymat zanjiri hosil bo'ladi va ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishiladi.

Agrar sohadagi bozor islohotlari koronavirus pandemiyasi sharoitlarida qishloq aholisi farovonligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishga qaratilmoqda. Bu borada davlat tomonidan aholi tomorqa xo'jaliklarining moliyaviy quvvatlanishi ham iqtisodiy, ham ijtimoiy natijalar bermoqda. O'zbekistonda aholi shaxsiy yordamchi xo'jaliklari soni 4,5 milliontani tashkil etmoqda va ular ixtiyorida 435 ming gektar er mavjud. 2020 yil 15 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti dehqon xo'jaliklari va aholining tomorqa uchastkalaridan samarali foydalanish va ekish ishlarini tizimli tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildi. 2020 yilda ularni quvvatlash uchun davlat byudjetining 300 mlrd. so'm mablag'lari va 100 mlrd. so'm bank kreditlari ajratiladi. Bundan tashqari davlat aholi uchun engil konstruktsiyali issiqxonalar qurishga 600 mlrd. so'm yo'naltirildi.

Umuman olganda, mamlakatimiz qishloq xo'jaligida chorvachilikning roli ortib bormoqda va bu birinchi navbatda aholi farovonligi yuksalayotganligi bilan bog'liq. Masalan, mustaqillik arafasida aholi jon boshiga yillik go'sht va go'sht mahsulotlari iste'moli 15 kilogrammni tashkil etgan bo'lsa, hozirda bu ko'rsatkich 3 baravar yuqori.



Aholi ratsionida go'sht tobora salmoqliroq o'rin egallamoqda. Bu esa bozor talabiga, talab esa narxlarga ta'sir etmay qolmaydi. Masalaning tub echimi chorvachilikning em-ozuqa bazasiga borib taqaladi. Shuning uchun, fikrimizcha, chorvachilik uchun er ajratishda qoldiq tamoyilidan voz kechish, tarmoqqa unumdorligi yuqori erlarni ajratish payti keldi. Yana bir muhim yo'nalish - beda maydonlarini keskin kengaytirishdir. Chunki bedapoya etkazib beradigan ozuqa birliklari boshqa ekinlarga nisbatan 1,5 baravar ko'p, tannarxi esa 3 - 4 baravar arzon. Paxta yakkahokimligi tufayli voz kechilgan tarmoqni qayta tiklash lozim. Beda kontsentrati eksporti ham yo'lga qo'yilishi mumkin deb hisoblaymiz.

Qishloq xo'jaligida eng muhim ishlab chiqarish resursi er bo'lib, uning unumdorligini asrash har doim ustuvor vazifa bo'lib qolaveradi. Hozirgi kunda jahon miqyosida tuproq unumdorligi yildan-yilga pasayib ketmoqda, bu hosildorlik va mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirgi paytda O'zbekistonda har yili 10 — 15 foiz maydonlarda paxta-g'alla-beda almashlab ekish hamda har bir paykaldagi tuproq tarkibining chuqur tahlili asosida maqbul “NPK” tizimini joriy etish zaruriyati mavjud. Natijada tuproq fizik xossalari yaxshilanishi hisobiga mineral o'g'itlarga bo'lgan talabni kamaytirish mumkin, suv resurslari ham tejaladi. Shu orqali yiliga 33 — 35 ming tonna urug'lik iqtisod qilinadi, don tannarxi kamayadi, hosildorlikni 8 — 10 foizga oshirish imkoniyati yaratiladi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'milashda tomorqalar xo'jalikdari alohida o'rin egallamoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 65 — 70 foizi dehqon xo'jaliklari va tomorqalarda etishtirilmoqda. Ayni paytda qishloq xo'jaligiga oid yangi samarador texnologiya va ishlanmalarni mahalla, xonadon va tomorqa xo'jaliklari darajasida keng qo'llashni tashkil etish yo'lga qo'yilmagan.

Shuning uchun, birinchi navbatda, qishloq xo'jaligiga oid tadqiqotlarni mahalla, xonadon va tomorqa xo'jaliklarida olib borish orqali tajriba-sinov ishlari va tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, ishonchliligi va targ'ibotini kuchaytirish zarur. 2023 yilda 5,5 million aholi tomorqasida 509 ming gektar ekin erlari mavjud edi. Asosiy mahsulotlardan



kartoshka, pomidor, karam va polizning 70 — 75 foizi, piyozning 65 foizi, sabzining 40 foizi aholi tomorqasi va dehqon xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Hozirgi paytda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari kengroq va chuqurroq qo'yilmoqda va quyidagilarni qamrab olmoqda:

- eng muhim mahsulotlarni barqaror hajmlarda ishlab chiqarish uni oshirib borish;
- mahsulotning ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligi, eksportga yo'nalganlikni saqlab qolish va kuchaytirish;
- innovatsion rivojlanish asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish (yangi texnologiyalar, va agrotexnika, nav almashtirish, organik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni joriy etish, suv va energiya tejamkorligi, dehqonchilik yuksak madaniyati);
- qishloq xo'jaligi rivojlanishini ekologik talablarga muvofiqlashtirish.

Qishloq xo'jaligini bozor tamoyillari asosida rivojlantirish borasidagi muammolarni quyidagicha ta'riflash mumkin. Tarmoqning moddiy-texnika ta'minoti zamonaviy talablar darajasiga olib chiqilishi zarur. Chunki:

- a) ixtisoslashtirilgan texnika etishmasligi;
- b) ilg'or agrotexnikadan foydalanish darajasi past ekanligi;
- v) kimyoviy vositalar va mineral o'g'itlarga talabning qondirilmasligi va ularning narxlari, sotishning monopollashganligi;
- g) saralash va saqlash quvvatlari etarli emasligi va tejamli emasligi kabi sabablar iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta'sir etmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. “�збекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. – Халқ сўзи, 2017 йил 8 февраль.
2. “Ўзбекистон – 2030” Стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. – Халқ сўзи, 2023 йил 12 сентябрь.
3. Сирожиддинов И. К., Ботирова Р. А. Возможности развития экспорта фруктов и овощей в регионе. – Актуальные вызовы современной науки. Сборник научных трудов. Выпуск 11 (31). Часть II// Переяслав-Хмельницкий, 2018. С. 82 – 85.
4. Сирожиддинов И. Қ., Сирожиддинов К. И. Оппортунитиес фор тхе девелопмент анд инсреасе оф фруит, вегетабле продустион анд тхе експорт потенциал оф тхе индустрий //Тхеоретисал & Апплиед Ссиенсе. – 2021. – №. 4. – С. 87-90.
5. Qutbiddinovich, S. I., & Abdulazizovich, X. U. B. (2023). GAAP ASOSIGA QO'YILGAN MOLIYAVIY HISOB KONTSEPTSIYALARI. *Interpretation and researches*, 1(3), 42-50.
6. O'g'li, J. E. S., & Abdulazizovich, X. U. B. (2019). Profits of housekeeping and its development. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 8(4), 419-423.
7. Xolmirzaev, U. B. A., & Madaliev, M. R. (2023). MOLIVIY HISOBOTLARNING QAYTA KO 'RIB CHIQILISHIDA XALQARO TALABLARGA RIOYA ETILISHI ZARURLIGI. *Educational research in universal sciences*, 2(3), 424-432.
8. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmirezayev, U. A., & Polechov, A. X. (2013). theory of Economic Analysis. *Tashkent" economics-finance"—2013*.
9. Xolmirzayev, U. A., & Xakimova, G. A. (2023). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.
10. Abdulazizovich, K. U. (2023). POSITIVE ASPECTS OF THE CASH METHOD IN SMALL ENTERPRISES UNDER UNUSUAL CIRCUMSTANCES. *ASIA PACIFIC*



JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 *Impact Factor: 8.071, 12(11), 38-47.*

11. Khakimov, J. B., & Kholmirzayev, A. U. (2021). Positive Aspects Of Cash Method In Small Enterprises In The Context Of Pandemic. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).
12. Холмирзаев, У. А. (2023). ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ: ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.
13. Холмирзаев, У. А., & Самижонова, Ш. С. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТРАЖЕНИЯ ДЕНЕГ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 755-766.
14. Холмирзаев, У. А., & Камолдинов, О. О. (2022). АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ О ДЕБИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ПО ОБОРОТНЫМ СРЕДСТВАМ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 767-779.
15. Abdulazizovich, X. U. B. (2024). MOLIYAVIY AKTIVLAR TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(2), 82-86.
16. Xolmirzayev, U. B., & Ergashev, I. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH TIZIMI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 3(5), 109-115.
17. Abdulazizovich, X. U. B., & Abdullajanovich, U. T. (2024). SANOAT ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT YO'NALISHLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 17-21.
18. Abdulazizovich, X. U. B. Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. *Ilmiy monografiya. Toshkent–2023.*



19. Xolmirzayev, U. B., & Hakimova, G. Z. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 10, 96-98.
20. Abdulazizovich, X. U. B., & Muhabbat, N. (2024). INCREASING COMPETITIVENESS IN THE COMMODITY MARKET IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 42(1), 197-206.
21. Gulshirin, J., & Abdulazizovich, X. U. B. (2022, March). INCREASING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT IN THE DEVELOPMENT OF EXPORT DIVERSIFICATION IN THE REGION. In *Conference Zone* (pp. 277-281).
22. Abdulazizovich, K. U. B. (2023). Improvement Of Information About Accounts Receivable In Current Assets In The Balance Sheet Based On International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 2849-2859.
23. Abdulazizovich, K. U. IMPROVING THE REFLECTION OF MONEY AND CASH EQUIVALENT IN THE ACCOUNTING BALANCE. *Dear Academicians & Research Scholars*, 55.
24. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). XALQARO QOIDALAR ASOSIDA QIMMATLI QOG'OZLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.
25. Abdulazizovich, K. U. (2022). Improving Methodological Approaches to Financial Asset Accounting. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 16(4), 56-62.
26. Холмирзаев, У. А. (2022). ҚИСҚА МУДДАТЛИ ҚИММАТЛИ ҚОҒОЗЛАРНИ АНАЛИТИК ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Архив научных исследований*, 2(1).
27. Khakimov, B., & Kholmirzayev, U. (2020). Improving Cash Accounting And Analysis On The Basis Of International Experiences. *International Finance and Accounting*, 2020(1), 18.